

Farzand va farzand tarbiyasi haqida

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/manaviyat/kun-hikmati/farzand-va-farzand-tarbiyasi>

Birni bersang otangga,
Mingni olasan bolangdan.

Bola beshikdan yiqilguncha,
Podsho taxtidan yiqilsin.

Bol – shirin, boldan – bola shirin.

Bola bo'lsa, beshik topilar.

Bola bo'lsa, sho'x bo'lsin,
Sho'x bo'lmasa, yo'q bo'lsin.

Bola ko'ngli — podsho.

Bola — xondan ulug'.

Bola o'nga kirsas, otasi songa kirar.

Bolali uyda sir yotmas,
Bolasiz uyda kir yotmas.

Gung bolaning gapini
Kar onasi tushunar.

Yolg'iz bola – yovdan yomon.

Yolg'iz bola yig'loq bo'lar,
Yolg'iz tuya – baqiroq.

Ona bilan bola – gul bilan lola.

Onaning ko'ngli bolada,
Bolaning ko'ngli dalada.

Farzandni boqish qiyin,
Farzandga yoqish qiyin.

Yaxshi o'g'il - el obro'si,
Yaxshi qiz - uy obro'si.

O'nta bo'lsa o'rni boshqa,
Qirqta bo'lsa - qilig'i.

O'g'illi uy - farishta,
Qizli uy - sarishta.

Qiz - meniki, baxti - o'zganiki.

Kumush Abdusalamova to'pladi